O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoniga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Madaniyat vazirligi) faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida:

“Axborot va kompyuter texnologiyalari markazi” davlat muassasasi “Yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va axborot-multimedia markazi” davlat muassasasi etib qayta nomlansin;

Madaniyat va san’at ko‘rgazmasi hamda Yoshlar madaniyat va san’at markazi tugatilsin, ularning budjetdan moliyalashtiriladigan shtat birliklari, balansida bo‘lgan binolar hamda boshqa moddiy-texnika vositalari Madaniyat vazirligiga o‘tkazilsin;

Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti (keyingi o‘rinlarda — Departament) va uning barcha hududiy boshqarmalari tuzilmasida tegishlicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Badiiy ekspertiza boshqarmasi hamda badiiy ekspertiza bo‘limlari tashkil etilsin;

Madaniyat vazirligi huzuridagi Badiiy ekspertiza boshqarmasi, uning hududiy bo‘limlari tugatilsin, ularning mavjud shtat birliklari hamda mol-mulklari moliyalashtirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda tegishlicha Departament hamda uning hududiy boshqarmalariga, pul mablag‘lari esa — Departamentning budjetdan tashqari Madaniy meros jamg‘armasiga o‘tkazilsin;

Madaniyat vazirligi huzuridagi “Madaniy meros ta’mirlash-tiklash” davlat unitar korxonasi hamda Departament huzuridagi “Meros chashmasi” davlat unitar korxonasi tugatilsin, ularga xo‘jalik yuritish, operativ boshqaruv va doimiy foydalanish huquqi bilan tegishli bo‘lgan binolar hamda boshqa moddiy-texnika vositalari belgilangan tartibda Madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutiga o‘tkazilsin;

Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta’mirlash bo‘yicha buyurtmachi xizmatining nomi Madaniyat vazirligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi etib qayta nomlansin;

“Guliston”, “Teatr” va “Moziydan sado” jurnallari tahririyatlari yagona tahririyatga birlashtirilsin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”, “Muzeylar to‘g‘risida”, “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlarida Madaniyat vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifa, funksiya hamda vakolatlar Departament va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

Departament va uning hududiy boshqarmalari faoliyati 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

3. Madaniyat vazirligi 2020-yil oxiriga qadar Departament va uning hududiy boshqarmalariga operativ boshqaruv huquqi bilan berilgan moddiy madaniy merosning barcha ko‘chmas mulk obyektlarini tegishli hududiy madaniyat boshqarmalari va muzey-qo‘riqxonalarga operativ boshqaruv huquqi bilan o‘tkazilishini ta’minlasin, Departament va uning hududiy boshqarmalari joylashtirilgan binolar bundan mustasno.

Moddiy madaniy meros obyektlariga egalik qiluvchi va ulardan foydalanuvchi davlat organlari va boshqa yuridik shaxslar rahbarlari hamda jismoniy shaxslar zimmasiga moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

Departament va uning tegishli hududiy boshqarmalari tegishincha tugatilayotgan Badiiy ekspertiza boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlarining huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha vorisi hisoblanadi;

Departament va uning hududiy boshqarmalari tarkibidagi Badiiy ekspertiza boshqarmasi va badiiy ekspertiza bo‘limlari boshliqlari o‘z lavozimiga ko‘ra tegishincha Departament va uning hududiy boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosari hisoblanadi;

Departament va uning hududiy boshqarmalari tarkibidagi Badiiy ekspertiza boshqarmasi va badiiy ekspertiza bo‘limlarining shtat birliklari tugatilayotgan Badiiy ekspertiza boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlarining shtat birliklari hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan qo‘shimcha shtat birliklarini ajratish orqali shakllantiriladi;

madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o‘tkazganlik uchun maxsus yig‘imlar Departamentning Madaniy meros jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

5. Madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutiga (keyingi o‘rinlarda — Institut) qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda, arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini yaratish, geodeziya va kartografiya faoliyati, moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarini asrashga doir faoliyat turlarini tegishli litsenziyalarni olmasdan amalga oshirish huquqi berilsin.

Belgilansinki:

Institut fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning davlat ilmiy-texnikaviy dasturlarida nazarda tutilgan mablag‘lar, o‘z faoliyatidan olgan mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Institut tugatilayotgan “Madaniy meros ta’mirlash-tiklash” va “Meros chashmasi” davlat unitar korxonalarining huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha vorisi hisoblanadi, xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar bundan mustasno.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi mavjud shtat birliklari va moddiy-texnika bazasi bilan to‘liq hajmda, moliyalashtirish, mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda Madaniyat vazirligi tizimiga o‘tkazilsin.

Madaniyat vazirligi 2020-yil 1-sentabrga qadar Madaniyat vazirligi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

7. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

boshqaruv xodimlari cheklangan soni 81 kishidan iborat O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

hududiy madaniyat organlari xodimlarining cheklangan soni 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziriga xodimlarning umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida hududiy madaniyat organlari tuzilmalarini tasdiqlash, shuningdek, zarur hollarda, ushbu tuzilmalar hamda vazirlik markaziy apparati tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

Mazkur bandga muvofiq Madaniyat vazirligi va hududiy madaniyat organlari uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan qo‘shimcha 51 ta shtat birliklari Madaniyat va san’at ko‘rgazmasining tugatilishi hamda Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarning qayta tashkil etilishi hisobiga bo‘shaydigan shtat birliklari hisobidan ajratilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash 4-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-

6000-son Farmonida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida, to‘liq hajmda va samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” hamda mazkur qarorning ijrosini ta’minlashda mas’ul vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rish;

mazkur bandda nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining doimiy monitoringi va tahlilini olib borish hamda ularning natijalari yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot va asoslantirilgan takliflar kiritib borish.

9. Madaniyat vazirligi:

a) ikki hafta muddatda:

ushbu qaror talablaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri o‘rinbosarlarining ular mas’ul bo‘lgan aniq yo‘nalish va vazifalarni nazarda tutuvchi funksional vazifalarini tasdiqlasin;

hududiy madaniyat boshqarmalari tuzilmalarida xodimlarning mazkur qaror bilan belgilangan cheklangan soni doirasida moddiy madaniy meros obyektlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘limlarini tashkil etsin;

b) bir oy muddatda:

ushbu qaror talablaridan kelib chiqib, Madaniyat vazirligi markaziy apparati va yangi tuzilgan bo‘linmalarni zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishini yuqori professional darajada ta’minlashga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish choralarini ko‘rsin;

Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan konsert-tomosha xizmatlarining tariflarini shakllantirish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

v) ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasiga:

Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi;

Departament faoliyatini takomillashtirish va barqaror ravishda moliyalashtirish, xodimlari mehnatini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish, shu jumladan ularga xizmat qilgan umumiy ish staji, ilmiy unvon va darajaga ega bo‘lgani uchun ustamalar belgilash, moddiy-texnika bazasini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi;

Madaniy boyliklarni realizatsiya qilish faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tishning xabardor qilish tartibi to‘g‘risidagi qaror loyihalarini kiritsin;

g) uch oy muddatda Ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining kalendar rejalarini shakllantirish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom hamda Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

10. Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga madaniyat va san’at muassasalarida Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimi ishlab chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Madaniyat vazirligi:

bir oy muddatda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan kelishgan holda Ommaviy tashrif buyuriladigan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzeylar ro‘yxatini tasdiqlasin;

2021-yil 1-iyulga qadar o‘z tizimidagi teatrlarning kirib-chiqish joylarida teatrlarning o‘z mablag‘lari va Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda tadbirkorlik subyektlarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilinadigan mablag‘lari hisobiga elektron turniketlar yoki tashrif buyuruvchilarni avtomatik hisobga olishga mo‘ljallangan boshqa moslamalar o‘rnatilishi va ularning Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga integratsiya qilinishini ta’minlasin.

11. 2021-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatchilari uchun mehnatga haq to‘lashning yagona tizimi joriy etilguniga qadar Madaniyat vazirligi, hududiy madaniyat boshqarmalari, tuman va shahar madaniyat bo‘limlari xodimlari uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ushbu xarajatlar uchun Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirishning quyidagi turlari joriy etilsin:

ko‘p yillik mehnati uchun rag‘batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga belgilangan koeffitsiyentlarda quyidagi hajmlarda har oyda qo‘shimcha pul to‘lash: 2 yildan 5 yilgacha — 0,1; 5 yildan 10 yilgacha — 0,2; 10 yildan 15 yilgacha — 0,3; 15 yildan ortiq — 0,4;

xodimlar faoliyatining natijadorligiga ko‘ra ish beruvchining alohida buyrug‘i bilan o‘rnatiladigan, lavozim maoshidan (rag‘batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda) 100 foizgacha bo‘lgan miqdorda har oylik shaxsiy ustama;

har oylik oziq-ovqat uchun xarajatlarni qoplash bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida to‘lovlar;

har oylik yo‘lkira uchun xarajatlarni qoplash bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to‘lovlar, xizmat avtotransporti biriktirilgan xodimlardan tashqari.

12. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2021-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida mazkur qarorda nazarda tutilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni ko‘zda tutsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 5-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-sentabrdagi “Toshkent shahrida barpo etilgan madaniyat va san’at ko‘rgazmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-467-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

15. Madaniyat vazirligi manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 26-may,
PQ-4730-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimining

TASHKILIY TUZILMASI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi markaziy apparatining

TUZILMASI



Ma’muriy boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni — 81 nafar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga
3-ILOVA

Hududiy madaniyat organlari xodimlarining

CHEKLANGAN SONI

T/r	Hududlar	Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni	shu jumladan:	
			Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyat madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasida	Tumanlar (shaharlar) madaniyat bo‘limlarida
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	76	16	60
2.	Andijon viloyati	77	13	64
3.	Buxoro viloyati	65	13	52
4.	Jizzax viloyati	65	13	52
5.	Qashqadaryo viloyati	70	14	56
6.	Navoiy viloyati	53	13	40
7.	Namangan viloyati	61	13	48
8.	Samarqand viloyati	78	14	64
9.	Sirdaryo viloyati	57	13	44
10.	Surhondaryo viloyati	69	13	56
11.	Toshkent viloyati	86	14	72
12.	Farg‘ona viloyati	90	14	76
13.	Xorazm viloyati	58	14	44
14.	Toshkent shahri	60	16	44
Jami:		**965**	**193**	**772**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga
4-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash

TARKIBI

B.A. Musayev	—	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi
O.A. Nazarbekov	—	O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi o‘rinbosari
R.T. Mamatov	—	O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri
A.V. Shin	—	O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri
Sh.X. Shermatov	—	O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri
I.U. Majidov	—	O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vaziri
N.F. Arziyev	—	O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari
Sh.Sh. Sharaxmetov	—	O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining o‘rinbosari
K.B. Akilova	—	O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining o‘rinbosari — Madaniy meros departamenti boshlig‘i
A.U. Akkulov	—	O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari
F.F. Abduxolikov	—	“O‘zbekkino” Milliy agentligi bosh direktori
D.M. Saidjonov	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari
S.N. Babaxodjayev	—	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktori
B.S. Yuldashev	—	O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti
A.V. Nuridinov	—	O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi
lavozimiga ko‘ra	—	O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi direktori
S.S. Sayidov	—	O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
R. Abdullayev	—	O‘zbekiston Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi raisi
Y. Axmedov	—	O‘zbekiston Teatr arboblari uyushmasi raisi
lavozimiga ko‘ra	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari
lavozimiga ko‘ra	—	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kotibiyat mudiri, Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibi

Izoh:

Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash ishiga kelishilgan holda boshqa vazirliklar, idoralar, xo‘jalik jamiyatlari va fuqarolik jamiyati institutlari rahbarlari va mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga
5-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-son qaroriga 35-ilovaning rus tilidagi matnidagi izohning 1-bandi “detey iz maloobespechennix semey” so‘zlaridan keyin “i detey s ogranichennimi vozmojnostyami” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2778-son qarorida:

a) 1-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 2-bandda:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to‘rtinchi-beshinchi xatboshilar tegishlicha uchinchi-to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

uchinchi-to‘rtinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazining tuzilmasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziriga, zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin”;

v) 1 — 6 va 8-ilovalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3219-son qarorining 3-bandi uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasiga mustaqillik yillarida yaratilgan, yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan tasviriy va amaliy san’at asarlarini sotib olish uchun har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 2 milliard so‘m mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi taklif ma’qullansin”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3325-son qarorining rus tilidagi matnida 1-ilovaning 3-banddagi “Sredstva AO “Uzsharobsanoat”, ejegodno videlyayemie v poryadke blagotvoritelnosti po sobstvennoy initsiative” so‘zlari “Sredstva Gosudarstvennogo budjeta Respubliki Uzbekistan, ejegodno videlyayemie” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-son qarorida:

a) 1-bandda:

quyidagi mazmundagi to‘qqizinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“madaniy boyliklarning O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi va uning hududiga olib kirilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, shu jumladan madaniy boyliklarni ekspertizadan o‘tkazish va sertifikatlar berish;”;

to‘qqizinchi — o‘n birinchi xatboshilar tegishlicha o‘ninchi — o‘n ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 3-bandning “v” kichik bandidagi “bosh me’mor va bosh inspektor” so‘zlari “bosh me’mor, bosh inspektor va Badiiy ekspertiza boshqarmasi boshlig‘i” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 7-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Madaniyat vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va davlat muzey qo‘riqxonalariga tegishli moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berishdan tushgan mablag‘larning 90 foiz miqdori”;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“mazkur qarorda nazarda tutilgan hollarda moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzey-qo‘riqxonalarda chiptalar sotilishidan tushgan pul mablag‘larining 50 foiz miqdori;

mazkur qarorda nazarda tutilgan hollarda muzeylarda chiptalar sotilishidan tushgan pul mablag‘larining 10 foiz miqdori;

madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o‘tkazganlik uchun maxsus yig‘imlar”;

to‘rtinchi — sakkizinchi xatboshilar tegishlicha yettinchi — o‘n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

g) quyidagi mazmundagi 7^1-band bilan to‘ldirilsin:

“7^1. Belgilansinki:

Ommaviy tashrif buyuriladigan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzeylar ro‘yxatiga (keyingi o‘rinlarda — Ro‘yxat) kiritilgan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzeylarga kirish-chiqish joylarida 2021-yil 1-iyulga qadar elektron turniketlar yoki tashrif buyuruvchilarni avtomatik hisobga olishga mo‘ljallangan boshqa moslamalar o‘rnatilishi va ular Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga integratsiya qilinishi shart;

Ro‘yxatga kiritilgan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzey-qo‘riqxonalarda elektron turniketlar tizimi va elektron chiptalar savdosini joriy etish xarajatlari Madaniyat vazirligi va balansda saqlovchilarning budjetdan tashqari mablag‘lari, Jamg‘arma hamda tadbirkorlik subyektlarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilinadigan mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Ro‘yxatga kiritilgan muzeylarda elektron turniketlar tizimi va elektron chiptalar savdosini joriy etish muzeylarning o‘z mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Ro‘yxatga kiritilgan va Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga integratsiya qilingan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzey-qo‘riqxonalarda chiptalar sotilishidan tushgan pul mablag‘larining 50 foizi Jamg‘armaga, 50 foizi esa balansda saqlovchilarga saqlash xarajatlari uchun yo‘naltiriladi, bunda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi shartnomada xususiy sherik tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash uchun muayyan davr mobaynida pul mablag‘larini taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilishi mumkin;

Ro‘yxatga kiritilgan va Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga integratsiya qilingan muzeylarda chiptalar sotilishidan tushgan pul mablag‘larining 10 foizi Jamg‘armaga, 90 foizi esa muzeylarning o‘ziga yo‘naltiriladi;

2021-yil 1-iyuldan boshlab Ro‘yxatga kiritilgan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzeylarda hamda Madaniyat vazirligi tizimidagi teatrlarda chiptalar savdosini Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga integratsiya qilmagan holda amalga oshirish nazorat-kassa texnikasini va hisob-kitob terminallarini qo‘llash tartibini buzish deb baholanadi.

Departament:

Ro‘yxat rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab o‘n kun ichida Ro‘yxatga kiritilgan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarining balansda saqlovchilari va muzeylarning muassislari bilan ularni 2021-yil 1-iyulga qadar Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish grafiklarini tasdiqlasin;

Bilet operatsiyalari yagona elektron tizimiga integratsiya qilingan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari va muzeylarda elektron chiptalar sotilishidan tushgan pul mablag‘larining tegishli qismini Jamg‘armaga yo‘naltirish haqida Moliya vazirligi G‘aznachiligining o‘z vaqtida xabardor qilinishini ta’minlasin”.

6. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1999-y., 9-son, 51-modda) bilan tasdiqlangan Budjet tashkilotlarini xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash) tartibining 29-bandi ikkinchi va uchinchi xatboshilari “budjet

tashkilotlarida” so‘zlaridan keyin “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlarida” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari quyidagi mazmundagi 14^1-band bilan to‘ldirilsin:

“14^1. Sotuvchi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi mumkin bo‘lmagan madaniy boyliklarni sotish vaqtida bu boyliklarning O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi mumkin emasligi to‘g‘risida xaridorni yozma ravishda ogohlantirishi shart”.

8. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida”gi 458-son qarorining rus tilidagi matnida:

a) 6-ilova quyidagi mazmundagi izoh bilan to‘ldirilsin:

“Primechaniye: razmeri bazovix doljnostnix okladov administrativno-upravlencheskogo personala:

imeyuщego uchenuyu stepen doktora nauk ili doktora nauk (Doctor of Science) ili priravnennie k ney drugiye uchenie stepeni zarubejnix stran — ustanavlivayutsya s primeneniyem povishayuщego koeffitsiyenta 2,5;

imeyuщego uchenuyu stepen kandidata nauk ili doktora filosofii (Ph.D) ili priravnennie k ney drugiye uchenie stepeni zarubejnix stran — ustanavlivayutsya s primeneniyem povishayuщego koeffitsiyenta 2”;

b) 7-ilovaning izoh qismi quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“imeyuщego uchenuyu stepen doktora nauk ili doktora nauk (Doctor of Science) ili priravnennie k ney drugiye uchenie stepeni zarubejnix stran — ustanavlivayutsya s primeneniyem povishayuщego koeffitsiyenta 2,5;

imeyuщego uchenuyu stepen kandidata nauk ili doktora filosofii (Ph.D) ili priravnennie k ney drugiye uchenie stepeni zarubejnix stran — ustanavlivayutsya s primeneniyem povishayuщego koeffitsiyenta 2”.

Izoh: 3, 4 va 8-bandlar 2021-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.